

FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING TARJIMA QILISH MUAMMOLARI

*Narmuratov Zayniddin Radjabovich
Termez davlat universiteti*

ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ

*Нармуратов Зайниддин Раджабович
Термезский государственный университет*

PROBLEMS OF TRANSLATION OF PHRASEOLOGICAL UNITS

*Narmuratov Zayniddin Radjabovich
Termiz State University*



E-mail:

zayniddin.terasu@mail.ru

Tel: +998 97 243 13 13

© 2025 2025 2025 2025 2025

Annotatsiya: Ushbu maqolada proverbial frazeologizm tushunchasi va ularning tarjima qilishdagi uchraydigan muammolari tahlil qilingan. Tarjima usullari nazariy va amaliy jihatdan o'rganilgan, sohaga doir olimlarning qarashlari tahlil qilingan va yangicha konseptual xulosaga kelingan. Tadqiqotda ilk bor maqollarni ekvivalentini topishda monoekvivalentlik, poliekvivalentlik, ma'noviy ekvivalentlik kabi ekvivalentlik turlari ishlab chiqilgan hamda amaliy misollar bilan yoritilgan.

Kalit so'zlar: proverbial frazeologizm, ekvivalent, tarjima usullari, maqol, frazema.

Аннотация. В данной статье анализируется понятие пословичной фразеологии и проблемы, возникающие при их переводе. Методы перевода были изучены теоретически и практически, проанализированы взгляды ученых в этой области, и был сделан новый концептуальный вывод. Впервые в исследовании были разработаны и проиллюстрированы практическими примерами такие типы эквивалентности, как моноэквивалентность, полиэквивалентность и семантическая эквивалентность.

Ключевые слова: пословичный фразеологизм, эквивалент, приемы перевода, пословица, фраза.

Abstract: This article analyzes the concept of proverbial phraseology and the problems encountered in their translation. Translation methods were studied theoretically and practically, the views of scientists in the field were analyzed, and a new conceptual conclusion was reached. For the first time in the study, the types of equivalence such as monoequivalence, polyequivalence, and semantic equivalence were developed and illustrated with practical examples in finding the equivalent of proverbs.

Key words: proverbial phraseologism, equivalent, translation methods, proverb, phrase.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Juda qadim zamonlardan boshlab insoniyatning savdo, iqtisodiy aloqalarida til bilish, til o'rganish, so'zlarning ma'nolari va ma'nolarning doiralarini aniqlashda, tilni aloqa, muomala, muloqot quroliga aylantirishda tilmochlar, ijodkor tarjimonlarga juda katta ehtiyoj tug'ilgan. Misol uchun birgina "sora" degan so'zni olaylik. U juda qadimgi semit tilida mavjud. Hozirgi dunyoning qariyb barcha tillariga bu so'z "Tavrot", Ibrohim alayhissalom tarixi, musulmon adabiyotlari orqali

atoqli ism tariqasida kirib, keng yoyilgan. Ayollarga yaxshi niyat qilib, "Sora" degan ism qo'yadilar. Xo'sh "Sora" nima degani? Qadimgi semit va xurr tillarida u "sharratu" tarzida bo'lgan va "malika" degan ma'noni bildirgan. "Sharratu" boshqa tillarga va jumladan musulmon xalqlari tillariga "Sora" bo'lib o'tgan. Inglizlar uni "Sara" deydilar. "Sar" - "bosh", xalqning boshi, podshohi. "Sarning bosh ma'nosidan malika ma'nosiga uyg'unlik bilan ko'chishini ko'rdingizmi? O'zbek tilida uzoq qadimdan "tilmoch" degan so'z mavjud. U boshqa

turkiy xalqlarning lug‘at boyliklarida ham aks etgan. Tilmoch - til biladigan kishi degani. “Tilmoch” - tarjimon so‘ziga qaraganda qadimiyroq. Tarjima va tarjimon so‘zlari iste‘molga kirgandan so‘ng “tilmoch” tarjimondan farqlanadigan bo‘ldi. “Tarjima” va “tarjimon” ko‘proq yozma madaniyatga dahldorlik ma‘nosida farqlandi. Umuman, ilk davlatlarning dunyoga kelishidan boshlab to hozirgi kungacha tarjimonlar davlatlararo diplomatik munosabatlar o‘rnatilishi, mustahkamlanishiga xizmat qilganlar. Xalqlarning bir-birlarini bilishlari, tushunishlariga qimmatli hissalarini qo‘shganlar.

Frazeologik birliklarning tadqiq etish va ularni xorijiy tillarga tarjima qilishning o‘ziga xos nazariy hamda amaliy jihatlar mavjud bo‘lib, idioma tushunchasi bilan bog‘liq ravishda qator muammolar, xususan frazeologizmlarning bir so‘zga muqobildorligi, turg‘un so‘z birikmalar metaforikligi va obrazlilik, semantik motivlashmaganlik va anomaliya, idiomada «ma‘nolar ko‘chishi» yoki «semantik yangilanish», ba‘zi idiomalarni o‘zga tillarga o‘girib bo‘lmaslik yoki o‘girishning juda qiyin kechishi, idiomalardagi ekspressivlik, so‘zlarning ekvivalentligi kabi masalalar ilmiy yechimini topish tilshunoslar oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Masalan, *Between you and me and the bed-post* idiomasi so‘zma-so‘z ma‘nosi – **Siz, men va krovat oyog‘i o‘rtasida bo‘ladi.** Aslida idiomaning mazmuni *Gap o‘rtamizda qolsin. Hech kim bilmasin* ma‘nosiga tengdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЖИТЕПАТРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Olimlar frazeologizmlarning lisoniy mohiyatini belgilashda xilma-xil fikrlar bildiradilar. Idioma borasida qiyinchilik bilan farqlanadigan, komponentlari o‘zaro turg‘un birlashgan, murakkab, ko‘p aspektli, munozarali, maqomi yetarli belgilanmagan, ikki yoki undan ortiq leksik negizdan tashkil topgan, tuzilishi jihatidan lingvistik birikma, yoki gapga teng, mazmunan so‘zga muqobil, tilda tayyor holda yaxlit mavjud bo‘lgan, takror qo‘llanuvchi, qurilishi jihatidan bir ma‘noli idiomaning turli shakllarini olib kelishi mumkinligi, tuzilishi jihatidan ba‘zan o‘zgaruvchan, so‘zga ekvivalent, so‘zlar majmuasi, turg‘un ibora, turg‘un so‘zlardan iborat kompleks, umumlashgan ma‘no anglatuvchi, turg‘un leksik-semantik birlik, ko‘p komponentli, yaxlit semantik

xususiyatga ega bo‘lgan kommunikativ birlik, til elementlarining kombinatsiyasi, tarjima qilib bo‘lmaydigan til hodisasi kabi ta‘riflar taklif etilgan. Shu o‘rinda frazeologik birliklarni tarjimasini bilan maxsus shug‘ullangan filolog olim professor G‘.Salomov maqol, matal va ayniqsa idiomalar boshqa tilga tarjima qilib bo‘lmaydigan qandaydir “o‘zida narsa” emasligiga ba‘zi birovlarni ishonitirishga umid qilaman deb ta‘kidlaydi [4]. Tadqiqotchi o‘zbek tilshunosligi uchun g‘oyat dolzarb muammolardan biri frazemalar tarjimasini bilan maxsus shug‘ullandi, shu mavzuda nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi [6], bir necha monografik tadqiqotlar ham yaratdi [4].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Bebaho boyliklar xalq ma‘naviy olamining go‘zal va buyuk namunasi bo‘lib, ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy-ma‘rifiy hayotimizda ularning tutgan o‘rni muhimdir. Shuning uchun ham ular “Otalar so‘zi – aqlning ko‘zi” deb ham nomlanadi. Donolar o‘gitalari, xalq maqollari va iboralar ayniqsa, yoshlarning ichki olami, ruhiy dunyosi va tafakkurini shakllantirishda katta o‘rin tutadi [5].

Biz ushbu maqolada frazeologik birliklarning mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, ularni o‘girishda ekvivalent hodisadan foydalandik. Masalan: *Knowledge is no match for luck* proverbial frazeologizmini o‘zbek tiliga so‘zma-so‘z tarjima qilsak, “bilim omad bilan bog‘liq emas” ma‘nosini bildiradi. O‘zbek tilida esa bunday proverbial frazeologizmi mavjud emas, ushbu misoldan ko‘rinib turibdiki, frazeologik birliklarni tarjima qilish har doim ham o‘zini oqlamaydi. Bunday holatda proverbial frazeologizmga shunday bir mos ekvivalent berilish kerakki, uning ruhi tarjimadan uzoqlashmasin. Yuqorida keltirilgan ingliz xalq proverbial frazeologizmiga o‘zbek tilida *Ilm xirmoni kitobdir* proverbial frazeologizmi mos ekvivalent bo‘la oladi. Ekvivalentlik hodisasining tahlilini ushbu jadvalda ham kuzatish mumkin. Yuqoridagi berilgan misoldan ko‘rinib turibdiki, iboralarni so‘zma-so‘z tarjima qilish har doim ham o‘zini oqlamaydi, aksincha, idiomalarga mos ekvivalent berish orqali ko‘zlangan ma‘no va mazmunga erishish mumkin. Tahlilga tortilgan misollarni jadvalda ko‘rsatilgan ekvivalentlik turlariga ajratib tahlilga tordik.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Mono – [yun. Monos – bir, yakka, yagona] O‘zlashma baynalminal qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi: “bir, yagona, yolg‘iz” ma’nolarini bildiradi. Monoekvivalentlik bir tildan boshqa ikkinchi tilda ma’nodoshi mos keladigan o‘rnini bosadigan so‘z yoki birikmani yagona bo‘lishi [1]. Biz bu ekvivalentlik turini *monoekvivalentlik* hodisasi deb atadik. Ishimizda aynan ana shunday misollarni tahlilga tortdik.

God only knows – Xudo biladi.

Have a clue – Biror narsani bilmoq.

Have one’s nose in a book – Boshini kitobdan ko‘tarmay o‘qimoq.

Poli – [yun. Poly – ko‘p, ancha, ko‘pgina] Baynalminal o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi: biror narsani ko‘pligini, xilma-xil murakkab tarkibli ekanini ko‘rsatadi [1]. Poliekvivalentlik bir tildan boshqa ikkinchi tilda ma’nodoshi, mos keladigan, o‘rnini bosadigan so‘z yoki birikmasi ikki va undan ortiq bo‘ladi:

Do not judge a book by its cover – Tashqi ko‘rinishga qarab baho bermang; Gavgaga qarab to‘n bichmoq.

Hit the books – Ko‘p kitob o‘qimoq; Kitobni yerga qo‘ymaslik; Kitobni qo‘lidan tushurmaslik.

Jack of all trades – Yer tagida ilon qimirlasa bilmoq; Qo‘lidan hamma ish keladigan.

Ma’noviy ekvivalentlik hodisasi mavzuviy guruhi turlicha bo‘lsa ham ma’no jihatdan o‘xshash bo‘ladi:

Crooked by nature is never made straight by education (Bukri bo‘lib tug‘ilganni tarbiya to‘g‘rilamas). – Asli qora oqarmas; Asli qora oqarmas, Asli qing‘ir tuzalmas; Asli qora oqarmas, Asli buzuq tuzalmas.

Have one’s nose in a book (burnini kitobni ustiga qo‘ymoq). – Ilm olishga mukkasidan ketmoq.

Ekvivalentsiz frazemalar har doim ham idiomalarni ekvivalentini bir tildan ikkinchi tilda topishni imkoni bo‘lmaydi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi quyidagi ekvivalenti mavjud bo‘lmagan frazeologik birliklarni misol keltirishimiz mumkin. Jumladan, quyidagi inglizcha idiomalar o‘zbek tilining frazemalari orasida ma’no va mazmun jihatidan mos keladigan paremalarni topish mushkul.

The admirable Crichton.

The Periclean age.

Ingliz tilining idiomalari orasidan quyida keltirilgan o‘zbekcha frazemalariga nisbatan ma’no va mazmun jihatidan mos keladigan frazeologik birliklarni topish mushkul.

Madrasa tuprog‘ini yalamoq.

Mulla, mullaning ishi hiyla. Mullaning sallasli oq.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdi-ki, turli tillarda gaplashuvchi xalqlarda shakl va mazmun jihatidan bir - biriga juda o‘xshash paremlar ham uchraydi. Ba‘zan esa bir tildan boshqa tilda shakl va mazmun jihatidan monand keladigan 1 ta frazema uchrashi, ba‘zan esa bir tildan boshqa tilga bir nechta ma’nosi bilan mos keladigan parema uchrashi mumkin. Ammo har doim ham bir tildagi paremalarga boshqa tilda mazmuni bilan hamohang, muvofiq keluvchi paremani (ekvivalentini) topishning imkoni bo‘lmasligi mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Begmatov E., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mirzayev T. va boshqalar. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. – Toshkent, 2006.
2. Begmatov E., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mirzayev T. va boshqalar. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. – Toshkent, 2006. – B. 178.
3. Salomov G‘. Maqol va idiomalar tarjimasini. Toshkent, O‘zFA nashriyoti, 1961.
4. Salomov G‘. Til va tarjima (badiiy tarjimaning umumfilologik va ba’zi lingvistik masalalari). Toshkent, Fan, 1966. – 340 b.
5. Yoshlarga donolar o‘giti / Tuzuvchilar: Salimov O., Quronboyev Q., Bekmurodov M., Tangriyev L., Xalilov N. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. Salomov G‘. Maqol va idiomalar tarjimasini. - Toshkent, O‘zFA nashriyoti, 1961. – 159 b.
6. Салямов Г.Т. Лексико-фразеологические вопросы художественного перевода (принципы перевода пословиц, поговорок и идиом с русского на узбекский язык). АКД. - Ташкент: 1964.